


01/11-02-05-66
24.06.2022-y.



Samarqand viloyati statistika boshqarmasida 2022-yil 24-iyunda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi

BAYONI № 12

2022-yil 24-iyun

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi: D. Musinov Boshqarma boshlig'i
Qatnashdilar: Boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari, Komissiya a'zolari, boshqarma hamda shahar, tuman statistika bo'limlari boshliqlari (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI

Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasining tegishli bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida "Biz korrupsiyaga qarshimiz" mavzusida hamda 2022-yilning II-choragi yakunida qabul qilinadigan statistika hisobotlarini qabul qilish va qayta ishlash jarayonida korxonalar va tashkilotlarning mas'ul shaxslaridan ta'magirlik yo'li bilan pora olmasliklarini yig'ilish ishtirokchilariga tushuntirish to'g'risida.

(D. Musinov, Sh. Abdiyev, F. Toshtemirov, F. Eshonkulov, U. Sadirov, D. Musinov)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan boshqarma boshlig'i D. Musinov so'zga chiqib, Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasining tegishli bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida "Biz korrupsiyaga qarshimiz" mavzusiga to'xtalib, korrupsiya bor joyda haqiqat va adolat va hech qaysi bir sohaning rivojlanishiga hamda oldimizga qo'ygan ulkan maqsadlarimizga korrupsiya illati bilan hech qachon erishib bo'lmasligini aytib o'tdi.

Shu jumladan, 2022-yilning II-choragi yakuni bilan qabul qilinadigan (choraklik) statistika hisobotlarini qabul qilish va qayta ishlash jarayonida korxonalar va tashkilotlarning mas'ul shaxslaridan ta'magirlik yo'li bilan pora olmasliklari yuzasidan barcha tizim xodimlarini qat'iy ogohlantirib o'tdi.

Ma'lumki, korrupsiya jamiyat ildizini tubidan qo'poruvchi illatdir. Unga qarshi barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib kurashmasak, mamlakat kelajagini halokatga olib borishi, shubhasiz. Shu boisdan, bunga yo'l qo'ymaslik va korrupsiya jinoyatiga butunlay barham berish uchun fuqarolarimiz ongida korrupsiyaga qarshi nafrat, uni sodir etishga yo'l qo'ymaslik tuyg'usini shakllantirishimiz lozim. Afsuski, bu illatning sodir etilishiga ko'p hollarda fuqarolarimizning o'zlari bilib-bilmay sababkor bo'lib qolayotganligi hamda korrupsiya jinoyatiga qarshi kurashishda tizim xodimlarimiz huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish orqali korrupsiyaning oldi

olinishini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek kun tartibidagi yig'ilishda, boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari Sh.Abdiyev so'zga chiqib, barcha darajadagi xodimlar tomonidan statistika hisobotlarini qabul qilish va qayta ishlash jarayonida hisobot taqdim etuvchi subyektlarni ovoro qilish, ularni asossiz Davlat statistika idoralariga taklif qilish, to'lovlar undirish, o'zaro munosabatlarda sansalorlik, ta'magirlik, poraxo'rlik va boshqa ko'rinishdagi korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha korrupsiya holatlari haqida to'xtalib, "Siz korrupsiyani to'xtata olasiz!", "Korrupsiya barqaror rivojlanish uchun to'siq", "Korrupsiyaga to'qnashdingmi qo'ng'iroq qil" va "Unutmang, korrupsiyadan har birimiz jabr ko'ramiz" mazmunida tayyorlangan bukletlarni aholi va tadbirkorlik subyektlari vakillariga hamda statistika hisobotlarini topshiruvchi subyektlar vakillariga doimiy ravishda tarqatilib borilishini ta'kidlab o'tdi.

Korrupsiya va poraxo'rlik hokimiyat va boshqaruv asoslarini yemiradigan, uning aholi oldidagi obro'siga putur yetkazadigan, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlariga daxl qiladigan havfli jinoiy hodisalardan biridir. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bo'lib o'tgan yig'ilishda korrupsiya murakkab ijtimoiy hodisa ekanligi, unga qarshi kurashish uchun alohida choralarni qo'llash, korrupsiyaga qarshi kurashish davlat va jamiyat o'zaro jiplashishi lozimligi yana bir bor xodimlarga tushuntirildi.

Yig'ilish davomida, korrupsiya jinoyatlarining oldini olishda korxon va tashkilotlar va fuqarolar orasida targ'ibot va tushuntirish ishlarini doimiy ravishda olib borish bu turdagi jinoyatlarning oldini olishda alohida ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

Yig'ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. Boshqarma boshlig'i D. Musinovning Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasining tegishli bndlari ijrosini ta'minlash maqsadida "Biz korrupsiyaga qarshimiz" mavzusida hamda 2022- yilning II-choragi yakunida qabul qilinadigan statistika hisobotlarini qabul qilish va qayta ishlash jarayonida korxon va tashkilotlarning mas'ul shaxslaridan ta'magirlik yo'li bilan pora olmasliklari yuzasidan bergan axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Axborot xizmati (Sh.Muhammadiyeva) va Dasturiy texnik-ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov):

Boshqarma veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirilsin.

3. Agarda, mas'ul xodimlar tomonidan yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatlarga yo'l qo'ygan taqdirda ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi qonunchilikka muvofiq bekor qilinishi haqida ogohlantirilsin.

4. Mazkur yig'ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasi a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

Komissiya kotibi



X.Xolmo'minov